

BARCHASI SHU YERDAN VA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

UNIVERSITET
GAZETASI 5-son
Gazeta ichida gazeta

April oyining so'nggi kunida universitet rektori G'afurjon Muxamedov rahbarligida Kengashning kengaytirilgan sayyor yig'ilishi tashkil etildi. Mazkur yig'ilishda Kengash a'zolari, kafedra mudirlari, soha ekspertlari, sport jurnalistlari hamda iqtidorli talabalar ishtirok etib, jismoniy tarbiya va sport ta'limi yo'nalishida ilmiy hamda innovatsion faoliyatni jadallashtirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

multimediyaviy vositalar hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik qo'llanmalar taqdim etildi. Ko'rgazmalarda fan, texnologiya va pedagogika uyg'unligi asosida real ta'lim muammolariga innovatsion yechimlar taklif etildi.

Muhokamalar jarayonida sport jurnalistlari va chempion talabalar

SAN'AT VA ILM
CHORRAHASIDA:
TESHA MO'MINOV
IJODIGA NAZAR

"Rektor taklif etadi"



Chirchiq davlat pedagogika universitetida teatr san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan "San'at va ilm chorrahasida" ijodiy kechasi bo'lib o'tdi. Kechada O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori, O'zbekiston xalq artisti Tessa Mo'minovning hayot yo'li, yoshlik shijoati, ustozlar sabog'i, sahnada rol ustida ishlashi jarayonlari haqida fikr yuritildi.

Kechada O'zbekiston xalq artistlari Muqaddas Xoliqova, Gavhar Zokirova, O'zbekistonda va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artistlar Ra'no Yarasheva, Tolib Mo'minov, teatr aktyorlari Davron Karimov va Sharofiddin Muzropov, "Guliston" va "Teatr" jurnallari birlashgan tahririyati bosh muharriri Shahribonu Imomovalar ishtirok etib, ustoz-san'atkor Tessa Mo'minovning ijod yo'li haqidagi iliq fikrlari hamda o'zbek teatr san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan chiqishlari bilan barchada katta taassurot qoldirdi.

Ijodiy kecha davomida san'atkorlar dastlab talabalarga o'zbek mumtoz teatr merosi – Milliy teatr spektakllarining nafis va murakkab namunalarini taqdim etishdi. Ushbu chiqishlar universitet jamoatchiligi, san'atshunos olimlar hamda talaba yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. Talabalar ushbu jarayonda mashhur aktyorlarning jonli chiqishlarini ko'rib, o'zbek teatr san'atining nozik jihatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Ijodiy kechani yana bir muhim qismi O'zbekiston xalq artisti Tessa Mo'minov Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Faxriy professori" unvoni bilan taqdirlanishi O'zbek Milliy akademik drama teatri jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish va olqishlar bilan kutib olindi.

Mazkur tadbir davomida ishtirokchilarga teatr san'atining tarixiy ildizlari, uning badiiy-estetik xususiyatlari, o'zbek teatr san'atining buyuk darg'alari haqida fikrlar aytili.

Shuningdek, Gumanitar fanlar fakulteti magistrleri va "Mehr" talabalar teatri ijodkorlari tomonidan Tessa Mo'minov yaratgan obrazlaridan namunalar, monologlar ijro etdilar.

Ushbu ijodiy kecha Payshanba – "Yoshlar kuni" doirasida tashkil etildi. Mazkur tadbir talabalarda o'zbek teatr san'atiga katta qiziqish uyg'otdi.

SPORT TA'LIMIDA
INNOVATSION YONDASHUV

Yig'ilish kun tartibidan sport pedagogikasini intensiv rivojlantirish, Jismoniy madaniyat fakultetida kasbga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish hamda kelajak o'qituvchilarini tayyorlashning samarali mexanizmlari o'rin oldi. Xususan, pedagogik sport ta'limini raqamlashtirish, "Kelajak o'qituvchisi" konsepsiyasini amaliyotga joriy etish va talabalar ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion muhit taqdimotlari katta qiziqish bilan kutib olindi.

Taqdimotlar davomida raqamlashtirish jarayonlari sharoitida bo'lajak mutaxassislarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ilg'or tajribalar namoyish etildi. Shuningdek, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning sport-pedagogik ta'limga ta'siri, professor-o'qituvchilarning innovatsion vositalardan foydalanish imkoniyatlari hamda kafedralarda yaratilayotgan yangi pedagogik muhit Jismoniy madaniyat fakulteti misolida chuqur tahlil qilindi.

Kafedralar tomonidan mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vizual materiallar, interaktiv maketlar,

ham faol qatnashib, o'zlarining amaliy tajribalariga tayangan holda dolzarb taklif va mulohazalarini bildirdilar. Bu esa yig'ilishga amaliy ruh va ochiq muloqot muhitini baxsh etdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda bolalar sporti, kiber sport hamda ommaviy sport harakatining jadal rivojlanib borayotgani fonida zamonaviy bilim va innovatsiyalar bilan qurollangan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifa ekani alohida ta'kidlandi.

Yig'ilish doirasida universitet sport to'garaklari faoliyati ham tahlil qilinib, mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish hamda yoshlarni sportga keng jalb etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan hisobot tinglandi. Shuningdek, ta'vil davrida maktab o'quvchilari o'rtasida sportni rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar dasturi taqdim etildi.

Yig'ilish yakunida sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan talabalar va ularning ustozlarini rag'batlantirish, chempion talabalar faoliyatini keng ommalashtirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Ochiq dars

TAHLIL, TASNIF VA AMALIY YECHIMLAR



Maxsus pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi, Ozodaxon Ishmatova tomonidan "Nutq buzilishlarining klassifikatsiyasi" mavzusida ochiq ma'ruza darsi yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur mashg'ulot davomida nutq buzilishlarining ilmiy tasnifi, ularning kelib chiqish sabablari, klinik va pedagogik xususiyatlari hamda logopedik amaliyotdagi o'rni batafsil yoritildi. Mavzu izchil va tizimli tarzda bayon qilinib, nazariya amaliy misollar bilan uyg'unlashtirildi.

Dars jarayoni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilib, interfaol metodlar, jamoaviy ishlash, savol-javoblar va amaliy topshiriqlar orqali yanada boyitildi. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish mashg'ulotning samaradorligini oshirib, uning ta'sirchanligini kuchaytirdi.

Talabalar faol ishtirok etib, mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar, nutq buzilishlarining turlari va ularni farqlash mezonlari bo'yicha amaliy mashqlarni muvaffaqiyatli bajardilar. Kichik guruhlarda olib borilgan ishlar, taqdimotlar va muhokamalar mavzuni chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Shuningdek, dars davomida nutq buzilishlarini tasniflashga oid ilmiy yondashuvlar slaydlar asosida tushuntirilib, real holatlar misolida tahlil qilindi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga batafsil va asosli javoblar berildi, mavzuning amaliy ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Mashg'ulot yakunida umumiy xulosalar chiqarilib, talabalar bilimlari mustahkamlandi. Kelgusida logopedik faoliyatda nutq buzilishlarini to'g'ri aniqlash va tasniflash muhim ahamiyat kasb etishi yana bir bor e'tirof etildi.

Ochiq ma'ruza o'zining mazmunan boyligi, interfaoligi va yuqori samaradorligi bilan ishtirokchilarda katta qiziqish va ijobiy taassurot qoldirdi.

**“SPORT KUNI”
MAZMUNLI VA
FOYDALI BO‘LDI**

Joriy yilning 7-aprel kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish hamda ommaviy sportni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan edi.

Zero, sport bu faqat musobaqa maydoni emas, balki sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon qiladigan katta kuch ekanini davlatimiz rahbari doim ta’kidlaydi. Ana shu vazifalar ijrosi doirasida Chirchiq davlat pedagogika universitetining barcha sport inshootlarida ommaviy sport tadbiri tashkil etildi. Unda 7000 dan ortiq talabalar, professor-o‘qituvchilar va xodimlar ishtirok etib, turli sport yo‘nalishlari bo‘yicha bellashuvlar o‘tkazildi.

Sportning nafaqat sog‘lom turmush tarzi, balki metin intizom, yurtparvarlik ramzi ekani o‘tkazilgan musobaqalarda ham o‘zining yorqin ifodasini topdi. Erta tongdan boshlangan umumiy badantarbiya mashqlari ko‘magida ishtirokchilarning jismoniy va ruhiy holati musobaqalarga moslashtirildi.

Asosiy bellashuvlar futbol, voleybol, qo‘l to‘pi, basketbol va stol tennisi yo‘nalishlarida qizg‘in va murosasiz bahslar bilan davom etdi. Turli fakultetlar va tarkibiy tuzilmalar jamoalari o‘zaro kuch sinashar ekan, har bir o‘yin jamoaviylik, tezkorlik va aniq strategiyani talab qildi. Shu bilan birga, shaxmat-shashka va badminton kabi intellektual hamda texnik sport turlari ham tadbirga o‘ziga xos mazmun bag‘ishladi.

Kechga borib talabalar shaharchasida milliy sport o‘yinlariga start berildi.

**UNIVERSITET
YOSHLARI – MUTLOQ
G‘OLIB!**

Butun respublikamiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi” talaba-yoshlar uchun nafaqat jismoniy va intellektual salohiyatni namoyon etish maydoni, balki ularning sog‘lom va barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Mazkur olimpiada doirasida o‘tkazilgan voleybol musobaqalarining Toshkent viloyati bosqichi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Unda viloyatdagi barcha oliy ta’lim muassasalari jamoalari ishtirok etdi. Quvonarlisi, musobaqada yigitlar o‘rtasida ham, qizlar o‘rtasida ham Chirchiq davlat pedagogika universiteti jamoalari birinchi o‘rinni egallab, respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

CHDPU yoshlariga keyingi bosqichda ham ulkan zafarlar tilaymiz!

Poytaxtimizda joylashgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugun yoshlar uchun noyob ta’lim maydoniga aylangan. Chirchiq davlat pedagogika universiteti delegatsiyasining Markazga tashrifi ushbu maskanning nafaqat muzey, balki nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiruvchi zamonaviy ilmiy maktab ekanini yana bir bor namoyon qildi.

**ILM, TARIX VA YANGI
QARASHLAR UYG‘UNLIGI**

“Uchinchi Renessans chorrahasi” mavzusidagi dastur doirasida universitet prorektori Samariddin Qorayev boshchiligidagi talabalar va professor-o‘qituvchilardan iborat delegatsiya O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi. Bundan asosiy maqsad talabalarni O‘zbekistonning boy ilmiy-ma’naviy merosi, Islom sivilizatsiyasining insoniy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati bilan yaqindan tanishtirish, shuningdek, ta’lim jarayonida egallanayotgan nazariy bilimlarni amaliy kuzatuvlar orqali mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Ekspozitsiyalar bo‘ylab harakatlanar ekan, ishtirokchilar tarixni shunchaki kuzatish bilan cheklanib qolmadi – uni his qildi, anglashga harakat qildi va o‘z ilmiy hamda shaxsiy qarashlarini yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqdi. Tashrif davomida yangragan bir fikr esa bu jarayonning mazmunini aniq ifodaladi: bugungi yoshlar shunchaki kuzatuvchi emas, balki yangi davrni yaratuvchi avlodidir. Mazkur tashrif ta’lim, ilm-fan va ma’rifatni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda, talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy merosga hurmat tuyg‘usini mustahkamlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

**Bugungi kunda ta’lim
tizimi oldida jiddiy
savol turibdi:
kechagi usullar bilan
ertangi mutaxassisni
tayyorlash mumkinmi?**

Dunyo jadal o‘zgarimoqda. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish nafaqat ishlab chiqarishni, balki inson fikrlash tarzini ham o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda texnologik ta’lim o‘qituvchisi faqat

turlicha fikrlaydi. Kimdir tez angalaydi, kimdir ko‘proq vaqt talab qiladi. Kimdir nazariyada kuchli, boshqasi amaliyotda. Agar o‘qituvchi shu farqlarni his qila olsa, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bugungi kunda yana bir dolzarb masala bor: ta’lim ishlab chiqarishdan uzilib qolmayaptimi?

Agar talaba faqat kitob bilan cheklansa, u haqiqiy

**GIYOHVANDLIKKA
QARSHI MA’RIFIY
TASHABBUS**

Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni zararli illatlardan asrash hamda ezgu g‘oyalarga yo‘naltirish maqsadida universitetimiz yoshlari tomonidan sahnalashtirilgan “To‘da” spektakli Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida namoyish etildi. Ushbu tadbir yoshlar uchun nafaqat ma’naviy-ma’rifiy uchrashuv, balki muhim hayotiy xulosalarga boy bo‘lgan ta’sirchan muloqot maydoni bo‘ldi.

Mazkur sahna asarida giyohvandlikning inson salomatligiga, oilaviy muhitga va jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan og‘ir salbiy oqibatlar hayotiy va badiiy ifodalar orqali ochib berildi. Shuningdek, yoshlarning turli ta’sirlar ostida ushbu illat domiga tushib qolishi va uning fojiali natijalari ishonarli sahnalarda aks ettirildi.

Tomoshabinlar spektaklni katta qiziqish bilan tomosha qilib, undan kuchli taassurot oldilar. Tadbir davomida ular sog‘lom hayotni tanlash, har bir qarorga mas’uliyat bilan yondashish hamda kelajakni asrash borasida muhim xulosa chiqarishdi.

Bunday ma’rifiy tashabbuslar yoshlar o‘rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga, ularni turli salbiy illatlardan himoya qilishga hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHISI
QANDAY BO‘LISHI KERAK?**

bilim beruvchi emas, balki talabani hayotga tayyorlovchi mutaxassisga aylanmoqda.

Bugungi talaba oddiy ma’lumotni yodlashni emas, uni amalda qo‘llashni istaydi. Shu bois dars jarayoni ham o‘zgarishi shart.

Masalan, bir texnologik ta’lim mashg‘ulotida talabalarga oddiy qurilma modelini yaratish vazifasi berildi. Dars davomida ular guruhlariga bo‘linib, muammoni muhokama qildi, turli yechimlarni sinab ko‘rdi va nihoyat ishlaydigan modelni yaratishga erishdi. Eng muhimi – ular bu jarayonda nazariyani amalda qo‘llashni o‘rgandilar.

Zamonaviy o‘qituvchining yana bir muhim jihati – u o‘quvchini tushuna olishi kerak. Chunki har bir o‘quvchi

ish jarayonini qanday tushunadi?

Shu nuqtai nazardan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchilari oldida muhim vazifa turibdi – ta’limni ishlab chiqarish bilan bog‘lash. Buning uchun korxonalar, texnoparklar va IT markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, talabalarni real muhitga olib kirish zarur.

Masalan, talabalar zavodga borib, u yerdagi avtomatlashtirilgan liniyalarni ko‘rsa, yoki IT markazda dasturchilar bilan muloqot qilsa – bu ular uchun kitobdagi yuzlab sahifalardan ham qimmatliroq tajriba bo‘ladi.

Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish usuli bu borada juda samarali. Talaba tayyor javobni emas, yechimni o‘zi topadi. Izlanadi, xatoga yo‘l qo‘yadi, qayta harakat qiladi va aynan shu jarayon uni

rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologik ta’lim o‘qituvchisi raqamli texnologiyalardan ham chuqur xabardor bo‘lishi kerak. Bugun 3D modellash, virtual va qo‘shimcha reallik, robototexnika kabi vositalar darsning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Tasavvur qiling, talaba murakkab mexanizmni kitobdan emas, balki 3D muhitda ko‘rib, uni aylantirib, qismlarga ajratib o‘rganmoqda. Bu – mutlaqo boshqacha ta’lim!

Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni shakllantirish ham muhim. Chunki bugungi kunda tayyor bilim emas, balki uni tahlil qilish va yangi yechim topish qobiliyati

qadrlanadi.

O‘qituvchi darsda shunday muhit yaratishi kerakki, talaba savol berishdan qo‘rqmasin, fikr bildirishdan tortinmasin va eng muhimi – mustaqil o‘ylashni o‘rgansin.

Chunki haqiqiy ta’lim – bu javob berish emas, savol tug‘dirishdir.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim o‘qituvchisi yo‘nalish beruvchi, imkoniyat yaratuvchi va ilhom baxsh etuvchi shaxsdir.

Zamonaviy o‘qituvchi bilim bermaydi – u fikrlashni o‘rgatadi.

**Kamaladin
MATYAKUBOV,
Texnologik ta’lim
kafedrasida pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent**

Ushbu qo‘shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.